

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA ISHTIROK ETGAN QARINDOSHLIK
TERMINLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Sharipova Maftuna Jamshid qizi

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti o‘qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

behruz.lux.stal.@93gmail.com

Bafoyeva Dilora Erkin qizi

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada qarindoshlik terminlari ishtirok etgan maqollar tadqiq obyekti sifatida olingan. Dastlab maqol atamasiga izoh berilib, so‘ngra qarindoshlik termini tushunchasi izohlangan. Maqollarda ishtirok etgan qarindoshlik terminlarining semantik xususiyatlari yoritilgan. Ushbu terminlarni yoritishda Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asaridan, I.A. Ismoilovning “Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari” (o‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, turkman tillari materiallari) monografiyasidan hamda o‘zbek tilining izohli lug‘atidan foydalanilgan. Shuningdek, maqolani yozish davomida qarindoshlik terminlarini izohlash uchun etimologik lug‘at ham asos sifatida olingan. Maqollarning semantik xususiyati yoritilib, ularning sinonimik imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: maqol, qarindoshlik terminlari, semantik xususiyatlar, sinonimiya, izohli lug‘at, etimologik lug‘at.

**СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТЕРМИНОВ РОДСТВА,
УЧАСТВУЮЩИХ В УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИТЕЛЬСТВАХ**

Аннотация. В данной статье в качестве объекта исследования задействованы термины родства, пословицы. Сначала поясняется термин пословица, затем затрагивается понятие термина родство. Выделены семантические особенности терминов родства, входящих в пословицы. Родство из творчества Махмуда Кашгари «Девон-у луготит тюрк» в разъяснении терминов, монография И. А. Исмаилова. Используются «Термины этнической принадлежности на тюркских языках» (материалы узбекского, уйгурского, казахского, каракалпакского, кыргызского, туркменского языков) и толковый словарь узбекского языка. Также при написании статьи использовался этимологический словарь для пояснения терминов родства. После объяснения смысловых особенностей пословиц приводятся примеры синонимов пословиц.

Ключевые слова: пословица, термины родства, смысловые особенности, синоним, толковый словарь, этимологический словарь.

SEMANTIC CHARACTERISTICS OF KINSHIP TERMS PARTICIPATING IN UZBEK PROVERBS

Abstract. In this article, kinship terms are involved proverbs are taken as an object of researches. First, the term proverb is explained, then the concept of the term kinship was touched upon. The semantic features of the kinship terms involved in proverbs are highlighted. Kinship from Mahmud Kashgari's work "Devon-u lug'otit turk" in explaining the terms, I. A. Ismailov's monograph "Ethnic kinship terms in Turkish languages" (materials of Uzbek, Uyghur, Kazakh, Karakalpak, Kyrgyz, Turkmen languages) and an explanatory dictionary of the Uzbek language were used. Also, during the writing of the article, an etymological dictionary was used to explain kinship terms. After explaining the semantic features of proverbs, examples of synonyms of proverbs are given.

Keywords: proverb, kinship terms, semantic features, synonym, explanatory dictionary, etymological dictionary.

Maqol xalq og'zaki ijodining maxsus turiga kiruvchi janri hisoblanadi. Bu atama arabcha "qavlun", "aytmoq", "gapirmoq" so'zidan kelib chiqqani tarixiy manbalardan ma'lum. Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'otit turk" asarida keltirilishicha, "sav" atamasi "otalar so'zi" degan ma'noni anglatadi. Bundan anglashiladiki, qadimda maqol atamasi o'rnida "sav" termini qo'llanganini kuzatish mumkin. Bir jumla bilan aytganda, ota-bobolarimizning hayotiy kuzatish va hayotiy tajribalardan kelib chiqqan xulosa so'zlari maqol hisoblanadi. Maqollarning negizida albatta tarbiyaviy ahamiyat yotadi. Maqollar ham to'g'ri ma'noda, ham majoziy ma'noda qo'llaniladi. Maqollarda nafaqat xalqning tarixi, hayot tarzi, rasm-rusumlari, balkim zolim amaldorlarga yaqin yo'lamaslik va iloji boricha ulardan qochish fikri, xalq orasiga fisq-u fasod qo'zg'ovchi ig'vogar kishilarga bo'lgan nafrati aks etib turadi. Ayrim maqollarning kelib chiqishi ma'lum bir tarixiy afsona, rivoyat va hikoyalar bilan bog'liq bo'ladi. Maqollar muayyan aniq shaklga ega bo'lib, shaklan she'riy va nasriy usulda yozilgan bo'ladi. Xuddi she'r misralariga o'xshab qofiyali bo'ladi. Maqollarda to'la-tugallangan fikr, xulosa ifodalanadi. Bu janr xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda shaklga kelib qolgan.

Qarindoshlik terminlari yaqinlik yoki qavm-qarindoshlik tushunchasini bildiradigan so'zlar sanaladi. I. A. Ismoilov o'zining "Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari" (o'zbek, uyg'ur, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, Turkman tillari

materiallari) [10-11] yaratgan monografiyasida hozirgi zamon o'zbek va uyg'ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlarini o'zlarining kelib chiqishi va ma'nosiga ko'ra asosan uchta katta guruhga bo'ladi: 1) qon-qarindoshlik terminlari; 2) nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik terminlari; 3) yaqinlik nomlari;

Qon-qarindoshlik terminlariga quyidagilarni misol qilib aytsak bo'ladi: aka, uka, amaki, amakivachcha, amma, amnavachcha, bobo, buvi, buva, dada, oyi, ota, ona, opa, singil, tog'a, padar, tog'avachcha, xola, ini, og'a, xolavachcha, nevara, nabira, chevvara, evara, ena, momo, aya, opoqi.

Nikohdan keyin paydo bo'ladigan qarindoshlik terminlariga esa quyidagilar kiradi: boja, kelin, kuyov, yanga, er, xotin, ovsin, qaynopa, qaynona, qaynota, qaynegachi, qayni, qaynog'a, qaynsingil, quda, yazna, ichkuyov.

Yaqinlik nomlariga bo'lsa oshna, og'ayni, tutungan opa, tutungan aka, tutungan ona, tutungan ota kabi so'zlar misol bo'la oladi.

Qarindoshlik terminlari turli shevalarda turlicha talaffuz qilinadi, ya'ni o'zgaradi. Lekin shakl o'zgarsa ham, terminning ma'nosi o'zgarmaydi. Bir xil tushunchani ifodalaydi. Masalan: ona, ena, aya, oyi, nana, opoqi;

O'zbek xalq maqollarining anchasida qarindoshlik terminlari ishtirok etgan. Xususan, ***“Urug'ingga so'z aytsang, orasini buzib uzib ayt, Otang ishga buyursa, namozingni buzib ayt”*** maqoli bunga misol bo'la oladi. Avvalo mazkur maqolning izohi bilan tanishadigan bo'lsak: “Ma'lumki, Islomda namoz dinning ustunidir. Namozni buzish katta gunoh sanaladi. Hech bir uzrsiz buzish esa haromdir. Lekin maqolda agar otang namoz o'qib turgan paytingda ish buyursa, hattoki namozingni buzib bo'lsa ham otangga javob ber deyilyapti. Maqolda otaga bo'lgan hurmat ifodalangan. Hattoki farzandning otasiga bo'lgan ehtiromi, uning namoziga nisbatan ishonchidan ustun ekanligi ko'rsatilgan. Shuni o'rinda ta'kidlash joizki, farzandning otaga nisbatan qilgan har bir xatti-harakati mukofotsiz yoki jazosiz qolmaydi. Shu sababli otaga yuksak hurmat ko'rsatish lozim. Zero otaga bo'lgan hurmat inson odobining kamoli, mukammal axloq toji, qalb safosi hamda umr ziyosidir. Bu o'tkir haqiqatni o'ziga xos jihati shundaki, uni takror-takror aytgan sari mazmuni ozaymaydi, maqomi kamaydi”. Maqolda “ota” qarindoshlik termini qo'llanilgan. Mahmud Koshg'ariyning “Devon-u lug'otit turk” asarida “ata” termini “ota” degan ma'noni anglatib kelgan. Bundan kelib chiqadiki, qadimgi turkiy tilda “ota” manosini anglatgan so'z “ata” tarzida talaffuz qilingan. Asarda “dada” termini ham uchraydi. Bu termin o'g'uzchadan “ota” degan ma'noni bildiradi. Ota qon-qarindoshlik termini sifatida turkiy tillarda asosan bolasi bor yoki biror shaxsning bolasini asrab olgan shaxsga nisbatan aytiladigan termindir¹. Izohli lug'atda esa ota terminiga izoh quyidagicha keltirilgan: 1) farzandli, bola-chaqali er kishi (o'z

bolalariga nisbatan); 2) yoshi katta kishilarga murojaat qilishda yoki ularni hurmatlash uchun ishlatiladi; 3) og‘il bolani erkalash uchun ishlatiladi; 4) biror ish yoki harakatni boshlab bergan, unga asos solgan kishi haqida (ko‘chma); 5) mehribon boshliq, rahnamo (ko‘chma); 6) el-yurtga boshchilik qiluvchi, yoshi katta ulug‘ zot; O‘zbek tilining etimologik lug‘atining (1-jild) da keltirilishicha, “ota” so‘zi “erkak kishi o‘z farzandiga nisbatan” ishlatiladi. O‘zbek tilida bu so‘z boshlanishidagi a unlisi â unlisiga, oxiridagi a unlisi ä unlisiga almashgan. Ya’ni: ata – âtä. Yuqoridagi “Urug‘ingga so‘z aytasang, orasini buzib uzib ayt, Otang ishga buyursa, namozingni buzib ayt” maqoliga “Amri padar – arshdan a’lo” va “Amri padar arshdan ulug‘” maqollari sinonim bo‘la oladi. Keyingi qarindoshlik terminlari ishtirok etgan maqol bu **“Yetti yanga yig‘ilib ona bo‘lmas”**¹ maqolidir. Ushbu maqolni quyidagicha izohlash mumkin: “Onaning o‘rnini hech kim bosolmaydi. Onang vafot etgach, qarindosh-urug‘laring senga onangdek chinakam mehribon, dilkash bo‘lishga urunadi. Lekin ona yagona, uning mehrini, taftini boshqalardan tuyolmaysan. Nafaqat yettita yanga, balkim butun dunyo senga mehr berib g‘amxo‘rlik qilsa ham, o‘z onangdek hech kim bo‘lolmaydi”. Mazkur maqoldan shoir Muhammad Yusuf o‘zining “Beshinchi o‘gil“ nomli she’rida foydalangan:

“Yetmish yulduz yig‘ilib
Yarim oycha to‘lolmas,
Yetti yanga yig‘ilib,
Bitta ona bo‘lolmas,
Ona tirik eshikka
G‘iybat yaqin yo‘lolmas,
Mening esa bag‘rim qon,
Vayronaman, Onajon...”

Yuqoridagi maqoldayanga va ona qarindoshlik terminidan foydalanilgan. Ona so‘zi qon-qarindoshlik termini, yanga bo‘lsa nikohdan keyin paydo bo‘ladigan qarindoshlik termini hisoblanadi. “Devon-u lug‘otit turk” asarida “ana” termini “ona” degan ma’noni bildirib kelgan. Demak, qadimgi turkiy tilda “ona” manosini anglatgan so‘z “ana” tarzida talaffuz qilingan. Ona so‘zi bola tug‘ib, katta qilgan, tarbiyalagan o‘z bolasi bor yoki biror shaxsning bolasini asrab olgan ayolga nisbatan berilgan va uni aniqlovchi termindir². Izohli lug‘atda ona terminining izohi quyidagicha: 1) farzandli yoki farzandlari bo‘lgan xotin (o‘z tug‘gan farzandlariga

¹Исмоилов И. "Туркий тилларда кавм-қариндошлик терминлари" (узбек, уйгур, козок, киргиз, кораколпок, туркман тиллари материаллари асосида). Т.: 1956. Б.28

nisbatan); bolali xotin; 2) oila boshlig'i, tarbiyachisi; 3) keksa ayollarga hurmat yuzasidan ularning nomlariga qo'shilib ishlatiladi; 4) keksa ayollarga hurmat bilan murojaat formasi; 5) bola tug'gan jonivor; 6) yaratuvchi, vujudga keltiruvchi (ko'chma); O'zbek tilining etimologik lug'atining (1-jild) da keltirilishicha, "ona" so'zi "xotin kishi o'z tuqqan bolasiga nisbatan" ishlatiladi. O'zbek tilida bu so'z boshlanishidagi a unlisi â unlisiga, so'z oxiridagi a unlisi ä unlisiga almashgan: ana - ânä. Endi maqolda qo'llanilgan yanga termini haqida to'xtalib o'tamiz. "Devon-u lug'otit turk" asarida "mamu" so'zi "yanga" ma'nosini ifodalab kelgan. Asarda "mamu" so'zining izohi quyidagicha keltirilgan: "Nikoh kechasi kelin bilan birga yuboriladigan xotin, yanga. Bu so'z aslida turkcha emasdir". Yanga so'zining lug'aviy ma'nosi asosan: 1) o'zidan katta yoshdagi akasining, tog'asining, amakisining xotiniga nisbatan aytiladigan nomdir; 2) yangi turmush qurayotgan qiz va yigitning o'rtasida turuvchi, vositachi ayol shaxsga nisbatan ham aytiladi; 3) begona ayol shaxsga nisbatan murojaat qilish uchun ham ishlatiladi³; Izohli lug'atda esa yanga termini quyidagi ma'nolarni bildiradi: 1) akaning xotini (ukava singilga nisbatan); kelinoyi; 2) yoshi o'ziga nisbatan katta bo'lgan ayolga (o'zga ayolga) nisbatan qo'llanadi; 3) nikohning ikkinchi kuni kechasi kelin bilan kuyov xizmatida qoluvchi ikki xotindan biri; O'zbek tilining etimologik lug'ati (1-jild) da, "yana" so'zi "akaning xotini". Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot asli "yängä" tarzida talaffuz qilingan. O'zbek tilida g undoshi talaffuz qilinmaydigan bo'lgan: yängä - yänä. Yuqoridagi "Yetti yanga yig'ilib ona bo'lmas" maqoliga sinonim qilib quyidagi maqollarni aytish mumkin: "Aka-uka yig'ilib ota bo'lmas, Amma-xola yig'ilib ona bo'lmas", "Ming ignani yig'sang, taman bo'lmas, Ming ammani yig'sang, onang bo'lmas" va boshqalar. **"Oshiqqan qiz erga yolchimas"** maqolida ham qarindoshlik terminlari

ishtirok etgan. Maqolning izohi quyidagicha: "Inson har bir ishda, har bir narsada

²Исмоилов И. "Туркий тилларда кавм-қариндошлик терминлари" (узбек, уйгур, козок, киргиз, кораколпок, туркман тиллари материаллари асосида). Т.: 1956. Б.12

³Исмоилов И. "Туркий тилларда кавм-қариндошлик терминлари" (узбек, уйгур, козок, киргиз, кораколпок, туркман тиллари материаллари асосида). Т.: 1956. Б.118-119

shoshma-shosharlik qilishi o'rinli emas. Avvalo, yaxshilab o'ylab, keyin bir qarorga kelishi lozim. Aks holda oqibati yomon bo'ladi. Maqolda qiz o'ziga yor tanlashda hoshma-shosharlik qilsa, yigitni yaqindan bilmay turib unga turmushga chiqishga rozi bo'lsa, keyinchalik uni haqiqiy yuzini ko'rgach, unga bo'lgan

munosabati o'zgaradi. Ularning orasiga sovuqchilik tushadi. Oxir-oqibat bu ish ajralish bilan yakunlanadi. Shoshqaloqlik albatta yomon oqibatlarga olib keladi". "Hadis va hayot" kitobida shunday satrlar keltiriladi: Sahl ibn Sa'd roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Shoshilmaslik Alloh dandir. Shoshqaloqlik shaytondandir",- dedilar". Shuning uchun ham har bir inson qaror qabul qilishda va albatta har bir ishda shoshma-shosharlik qilmasligi lozim". Yuqoridagi "Oshiqqan qiz erga yolchimas" maqolidan Gulxaniy o'zining "Zarbulmasal" asarida ham foydalangan: "-Ey bolam, ko'nglungiz er tilar o'xshar, oshuqmang. "Oshuqg'on qiz erga borsa, yorchimas va teshik munchoq yerda qolmas",-der edi." Endi yuqoridagi maqolda ishtirok etgan qarindoshlik terminlariga to'xtaladigan bo'lsak, maqolda qiz va er qarindoshlik terminlari qo'llanilgan. Bu ikki termin ham nikohdan keyin paydo bo'ladigan qarindoshlik terminlari hisoblanadi. "Devon-u lug'otit turk" asarida qiz termini "qiz" shaklida keltirilgan. Demak, qadimgi turkiy tilda "qiz" manosi anglatgan so'z "kiz" tarzida talaffuz qilingan. Bundan tashqari asarda "ton qiz", "yinchka qiz" terminlari uchraydi. "Ton qiz" so'zi "to'ng'ich qiz" degan ma'noni bildiradi. "Yinchka qiz" so'zi esa "nozik, o'ynoqi qiz" degan ma'noni anglatadi. Qiz qarindoshlik termini sifatida ota-onalar, buva hamda buvilar va umuman qizning eng yaqin qarindoshlari tomonidan 1 shaxs egalik affiksi qo'shib, o'zining qizi ekanligini bildirishi va shu formada murojaat qilinishidir⁴. Izohli lug'atda qiz termini shunday ma'nolarni bildiradi: 1) balog'at yoshiga yetmagan ayol; 2) xotin jinsiga mansub farzand (o'z ota-onasiga nisbatan); 3) balog'atga yetgan, ammo hali turmushga chiqmagan ayol; ma'suma; bokira; 4) qizlarga yoki yosh juvonlarga nisbatan murojaatda ishlatilib, hurmat, erkalash, o'zini yaqin olish singari ma'nolarni ifodalaydi; O'zbek tilining etimologik lug'ati (1-jild) da esa "qiz" so'zi "ayol jinsiga mansub farzand", "balog'at yoshiga yetmagan ayol" degan ma'nolarda ishlatilishi haqida aytib o'tilgan. O'zbek tilida i unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan sababli termin shunday holga kelib qolgan: qiz - qiz. Bu qiz terminining kelib chiqish tarixi edi. Endi maqolda qatnashgan keyingi "er" terminining semantik xususiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, er termini umum turkiy so'z bo'lib, termin sifatida xotiniga nisbatan u shaxsning kim ekanligini va xususiyatini ifodalab keladi⁵. Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'otit turk" asarida esa "yer" termini "er" degan ma'noni ifodalab kelishi va "beg" termini ham "xotinning eri" ma'nolarini bildirishi haqida yozib o'tilgan. Izohli lug'atda er so'zining quyidagi ma'nolari keltirilgan: 1) erkak jinsiga mansub kishi, erkak; 2) xotin kishi bilan nikoh ahidida bo'lgan erkak kishi, qalliq (o'z xotiniga nisbatan);

⁴Исмоилов И. "Туркий тилларда кавм-кариндошлик терминлари" (узбек, уйгур, козок, киргиз, кораколпок, туркман тиллари материаллари асосида). Т.: 1956. Б.44

⁵Исмоилов И. "Туркий тилларда кавм-кариндошлик терминлари" (узбек, уйгур, козок, киргиз, кораколпок, туркман тиллари материаллари асосида). Т.: 1956. Б.102

3) mard, oliyjanob kishi; "Er" so'zi "xotin bilan nikohdagi erkak". Qadimgi turkiy tilda qam shunday ma'noni anglatgan bu so'z asli ä:r tarzida talaffuz qilingan qadimgi turkiy tildayoq ä: unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan va bu unli e unlisiga almashgan: ä:r > är > er. Bu so'z dastlab "erkak jinsiga mansub" ma'nosini anglatgan sifat bo'lgan, ot ma'nosini keyinchalik unlisiga almashgan: ä:r - är -er. Bu so'z dastlab "erkak jinsiga mansub" ma'nosini anglatgan sifat bo'lgan, ot ma'nosini keyinchalik anglata boshlagan⁶. Oshiqqan qiz erga yolchimas" maqoliga "Shoshgan er oqqush tutar", "Shoshganda labbay topilmas", "Shoshgan er o'yiga yetolmas", "Shoshgan kelin erini "oyi" debdi" kabi maqollari sinonim bo'la oladi. Bundan tashqari Bibish Jo'rayevaning "O'zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimik lug'ati" kitobidagi "Oshiqqan qiz elga yolchimas" maqoli quyidagi maqollar bilan sinonim ekanligi yozib o'tilgan: "Shoshgan pashsha sutga tushar", "Sabrsiz baliq sog'asiz ilinar", "Shoshgan ishga shayton qo'shilar", "Shoshgan zuluk yaproqqa yopishar", "Shoshilgan-loyga botgan", "Shoshqaloq to'g'ramchi qo'lini kesar", "Shoshgan o'rdak ham boshi bilan sho'ng'iydi, ham dumi bilan" va boshqalar. **"Nevaralarga buvilarning yonidagidek issiq joy yo'q"** maqolini ham qarindoshlik terminlari ishtirok etgan maqollar sirasiga kiritsak bo'ladi. Maqolning ma'nosi quyidagicha:

"Nevaralarga g'amxo'rlik qilish buvilarning majburiyati emas. Ammo buvilar nevaralarini hatto o'z farzandlaridanda ortiq ko'rib, mehr ko'rsatadilar. Nevaralarning buvilar tomon talpinishi ham shu mehrdandir". Maqolda nevara, buvi kabi qarindoshlik terminlari qo'llanilgan. Nevara asosan o'z farzandining (o'g'il va qiz) bolasiga nisbatan aytiladigan, uning o'ziga nisbatan kim ekanligini ko'rsatuvchi termindir⁷. Izohli lug'atda ham nevara so'ziga bobo-buviga nisbatan o'gil yoki qizning farzandi degan ta'rif keltiriladi. O'zbek tilining etimologik lug'ati (3-jild) da esa nabira bu so'z "nabire", "nabira" shakllari mavjudligi aytib o'tilgan. O'zbek tiliga forscha shakli oxiridagi e tovushini a tovushiga almashtirib olingan. o'zbek so'zlashuv tilida bu ot tarkibidagi b tovushi v tovushiga, i tovushi a tovushiga almashtirib navara tarzida, shu shaklining birinchi bo'g'inidagi a tovushi e tovushiga almashtirib nevara tarzida aytiladi; "ota-ona farzandining farzandi" ma'nosini anglatadi. Keyingi termini izohlaydigan bo'lsak, I. A. Ismoilov o'zining "Turkiy

tillarda qavm-qarindoshlik terminlari” (o‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, Turkman tillari materiallari) [10-11] yaratgan monografiyasida buvi so‘zi termin sifatida nevarasi tomonidan aytiladigan, uning kim ekanligini ifodalab keluvchi so‘zdir va o‘zbek adabiy tilida buvi varianti qabul qilingan bo‘lib, shevalarda ena, acha variantlari mavjuddir degan fikrlarni keltirib o‘tadi. Izohli lug‘atda bo‘lsa buvi so‘ziga quyidagicha ta‘rif beriladi: 1) otaning yoki onaning onasi; 2) ona, oyi; 3) tilga olinayotgan kishi ismidan keyin kelib, shaxsning keksaligini, unga yaqinlik, hurmatni ifodalaydi; “Buvi” so‘zi “ota-onaning onasi” degan ma‘noda ishlatiladi. Boshqa ma‘nolar qatori “ota-onaning

⁶Рахматуллаев Ш, “Ўзбек тилининг етимологик луғати”(туркий сўзлар) I жилд, Т.: 2000. Б. 467

⁷Исмоилов И. "Туркий тилларда кавм-қариндошлик терминлари" (узбек, уйгур, козок, киргиз, кораколпок, туркман тиллари материаллари асосида). Т.: 1956. Б.96

onasi” ma‘nosini anglatgan bu so‘z qadimgi turkiy tilda “bibi” tarzida talaffuz qilingan. Keyinchalik ikkinchi bo‘g‘indagi b undoshi v undoshiga, shuning ta‘sirida birinchi bo‘g‘indagi i unlisi u unlisiga almashgan va bunday holga kelib qolgan: bibi - buvi. Hozirgi o‘zbek tilida atoqli ot tarkibida bu so‘z bibi shaklida ham qatnashadi: Ânābibi, Xālbibi kabi va boshqalar⁸. Keyingi “**Amma-xola yig‘ilib dangona qilur, Bo‘lib ololmay hangoma qilur**” maqolida ham qarindoshlik terminlari ishtirok etgan. Maqolning ma‘nosi: “ Amma-xolalar mol-mulkni, aniqroq aytganda ota-onadan qolgan merosni tinchgina bo‘lishib ololmay, bir-birlari bilan kelisholmay, janjal chiqarishadi ”. Maqolda keltirilgan qarindoshlik terminlari amma va xola so‘zlaridir. Bu so‘zlar maqol tarkibida juft so‘z shaklida qo‘llangan. Amma er urug‘i, xola bo‘lsa xotin urug‘i hisoblanadi. Amma qarindoshlik termini otaning opasi yoki singlisiga nisbatan qo‘llaniladigan termindir. Bu termin boshqa terminlar kabi mahsuldorlik xususiyatiga ega emas, ya‘ni faqatgina xola termini bilangina kela oladi⁹. Izohli lug‘atda ham “amma” termini otaning opasi yoki singlisi (jiyanlarga nisbatan) ma‘nosida keltiriladi. “Amma” bu so‘z “otaning akasi” ma‘nosini anglatuvchi arabcha amm(un) suzita -at(un) muannas qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan bo‘lib, am-mat(un) shakliga ega. O‘zbek tiliga fathali ayn tovushini a tovushiga almashtirib, so‘z oxiridagi t tovushini tashlab qabul qilingan: ammat - amma. Bu so‘z “otaning opasi yoki singlisi (jiyanga nisbatan)” ma‘nosini anglatadi¹⁰. Keyingi terminning semantik xususiyatini izohlaydigan bo‘lsak, xola qarindoshlik termini ona urug‘larining uchinchi gruppasiga onasining opasi yoki singlisini ifodalovchi termindir. Bundan tashqari xola termini o‘zidan katta ayolga murojaat qilganda ham ishlatiladi¹¹. “Devon-u lug‘otit turk” asarida “koko” termini

“xola” degan ma’noni ifodalab kelgan. Izohli lug’atda esa xola so‘zining izohi quyidagicha keltiriladi: 1) onaning singlisi yoki opasi; 2) keksa ayollarga hurmat bilan murojaat qilish shakli; 3) hurmat yuzasidan yoshi katta ayollar ismiga qo‘shib ishlatiladi; “Xola” bu arabcha so‘z “xälat(un) shakliga ega. O‘zbek tiliga cho‘ziq ä unlisi a unlisiga almashtirib, so‘z oxiridagi t tovushini tashlab qabul qilingan: xälat-xäla (xola); “tog‘a” ma’nosini anglatuvchi arabcha xäl(un) so‘zining -at(un) qo‘shimchasi bilan hosil qilingan muannas shakli bo‘lib, “onaning opa-singillari” ma’nosini anglatadi¹². **“Kelsa xotin urug‘i, topilar uning yorig‘i, Kelsa erning urug‘i, bo‘lar yurak burug‘i”** maqolida ham qarindoshlik terminlaridan mohirona foydalanilgan. Maqolni izohlaydigan bo‘lsak: “ Shunday ichi qora, xudbin xotinlar borki, agar ularning uyiga eri tomonidan biror qarindoshi kelsa, ularni yoqtirmagandek

⁸Rahmatullaev Ш, “Ўзбек тилининг етимологик луғати”(туркий сўзлар) I жилд, Т.: 2000. Б. 63

⁹Исмоилов И. "Туркий тилларда кавм-қариндошлик терминлари" (узбек, уйгур, козок, киргиз, кораколпок, туркман тиллари материаллари асосида). Т.: 1956. Б. 86

¹⁰Рахматуллаев Ш, “Ўзбек тилининг етимологик луғати”(араб сузлари ва улар билан хосилалар) II жилд, Т.: 2003. Б. 33

¹¹Исмоилов И. "Туркий тилларда кавм-қариндошлик терминлари" (узбек, уйгур, козок, киргиз, кораколпок, туркман тиллари материаллари асосида). Т.: 1956. Б. 81-82

¹²Рахматуллаев Ш, “Ўзбек тилининг етимологик луғати”(араб сузлари ва улар билан хосилалар) II жилд, Т.: 2003. Б. 486-487

qiladilar, mehmonlarni tezroq ketishini xohlashadi. Mobodo o‘zlarining qarindosh-urug‘i mehmon bo‘lib kelsa, ularni o‘tqazgani joy topolmay, bor-budini dasturxonga to‘kadilar. Xalq bunday holatni qoralaydi. Chunki uyiga kelgan mehmonni qaysidir hislatiga yoki kimni qarindosh-urug‘i ekanligiga qarab

ajratish yaxshi ish emas”. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki, ko‘plab hadislarda

mehmonni izzat qilishga targ‘ib va tashviq qilingan. Jumladan, Abu Hurayra (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilingan hadisda bunday marhamat qilinadi: “Kimki,

Allohga va oxirat kuniga iymoni bo‘lsa, bas, mehmonini izzat-ikrom qilsin. Kimki, Allohga va oxirat kuniga iymoni bo‘lsa, qarindosh urug‘lar bilan silai rahm qilsin. Kimki, Allohga va oxirat kuniga iymoni bo‘lsa, yaxshilikdan so‘ylasin, yoki

jim tursin” Ushbu hadis orqali mehmonni izzat-u ikrom qilishga go‘zal ravishda targ‘ib qilinadi. Unga ko‘ra, o‘zini komil iymonlilardan deb hisoblagan har bir kishi mehmonini ikrom qilmog‘i lozim. Aks holda iymoni hali komil bo‘lmagan hisoblanadi. Endi terminlarni semantik xususiyatini izohlaydigan bo‘lsak, maqolda nikohdan keyin paydo bo‘lgan er va xotin terminlaridan foydalanilgan. „Devon-u lug‘otit turk” asarida xotin so‘zi o‘rnida boshqa bir necha so‘zlar uchraydi. Masalan: 1) urag‘ut; 2) kishi; 3) eshlar; 4) tishi; 5) kis-xotin; Mazkur asarda “xatun” so‘zi Afrasiyob qizlarigagina qo‘llanilishi ham aytib o‘tilgan. Bundan tashqari asarda “tul urag‘ut” va “bosh urag‘ut” terminlari ham uchraydi. “Tul urag‘ut” so‘zi “beva xotin” degan ma‘noni, “bosh urag‘ut” esa “ajralgan xotin” degan ma‘noni bildiradi. Izohli lug‘atda bo‘lsa “xotin” termini farzand ko‘rish, emizish qobiliyatiga ega odam, ayol va biror erkak nikohidagi ayol ma‘nosida keltiriladi. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (1-jild) ida, “xotin” so‘zi “ayol”, “erga tekkan ayol” degan ma‘noda ishlatilishi, bu so‘z qadimgi turkiy tilda qatun, xatun tarzida talaffuz qilinishi va “xotin” so‘zining tovush jihatidan o‘zgarishini quyidagicha: qatun - xatun – xâtin ekanligi aytib o‘tilgan. Bu so‘z dastlab “yuqori martabali kishining umr yo‘ldoshi” ma‘nosini anglatgani, ma‘no taraqqiyoti natijasida “umuman biror erkak kishining umr yo‘ldoshi” ma‘nosini va boshqa ma‘nolarni anglata boshlagani haqida ham ma‘lumotlar keltirilgan. Er qarindoshlik terminining semantik xususiyati yuqoridagi “Oshiqqan qiz erga yolchimas” maqolida izohlandi. Yuqoridagi “Kelsa xotin urug‘i, topilar uning yorig‘i, Kelsa erning urug‘i, bo‘lar yurak burug‘i” maqoliga “Xotin urug‘i kelsa – eshik ochiq, Er urug‘i kelsa – eshik yopiq”, “Er urug‘i – savat bosh, xotin urug‘i - ilon bosh”, “Ammang kelsa paranjisin ol, temir qoziqqa il, Xolang kelsa, paranjisin ol, kumush qoziqqa il” hamda “Ammang kelsa, paranjisin ol, tagiga eski to‘qim sol, Xolang kelsa, paranjisin ol, tagiga yangi to‘shak sol” kabi maqollar sinonim bo‘la oladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, milliy madaniyatimizning ko‘zgusi bo‘lgan xalq maqollarida keltirilgan har bir qarindoshlik terminlari uni yaratgan va asrab kelayotgan xalqning boy tarixi, etnografiyasi, urf-odati va boshqa jihatlarini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu terminlar xalqning qanday boy tarix va an‘analarga ega ekanligini yana bir karra isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. “Маънолар махзани” (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. – 448.

2. Исмоилов И. "Туркий тилларда кавм-кариндошлик терминлари" (узбек, уйгур, козок, киргиз, кораколпок, туркман тиллари материаллари асосида). – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1956. – Б. – 152.
3. Девони лугатит-турк (Туркий сузлар девони) II Том / М.Кошгарий. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1963. – Б. – 427.
4. Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. – 429.
5. Рахматуллаев Ш, “Ўзбек тилининг етимологик луғати”(туркий сўзлар) I жилд, Тошкент: “Университет”, 2000. – Б. – 599.
6. Рахматуллаев Ш, “Ўзбек тилининг етимологик луғати”(араб сузлари ва улар билан хосилалар) II жилд, Тошкент: “Университет”, 2003. – Б. – 598.
7. Рахматуллаев Ш, “Ўзбек тилининг етимологик луғати”(Форсча, тожикча бирликлар ва улар билан хосилалар) III жилд, Тошкент: “Университет”, 2009. – Б. – 282.
8. Жўраева Б. “Ўзбек халк маколларининг кискача синонимик луғати”. - Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти, 2007. Б. 70.
9. Гулханий “Зарбулмасал”. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. Б. 20.